

2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

IJDODIY PARVOZ

2023-yil avgust № 8 (123) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!



Mustaqillik eng ulug‘, eng aziz ne’mat. Bugun biz erishgan, erishajak yuksak marralar, ozod va obod Vatanimiz manzaralari, avvalo, istiqlol sharofatidandir. Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyilni o‘zida mujassam etgan islohotlar dinidan, tilidan, millatidan qat’i nazar O‘zbekistonda yashayotgan 130 dan ortiq millat, elat vakillarining huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bois xalqimiz eng ulug‘, eng aziz bu qutlug‘ ayyom zo‘r shodiyonalik, katta quvonch bilan hamjihatlikda ulkan shukronlalik ila tantana qiladi.



Eldor SHERMANOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Ayni kunlarda ko‘p millatli xalqimiz Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori asosida Vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, ma’nnaviy-ma'rifiy hayotida butunlay yangi davrni boshlab bergan unutilmas tarixiy voqeа – Mustaqilligimizning o‘ttiz ikki yillik sanasini balandruh va ko‘tarinki kayfiyat bilan nishonlash uchun qizg‘in tayyorgarlik ko‘rmoqda. Haqiqatan ham qarorda ta‘kidlanganidek, 1991-yil 31-avgust kuni xalqimiz o‘z Vatani, taqdiri va kelajagiga o‘zi egalik qilish huquqini qo‘lga kiritdi. Dunyo xaritasida O‘zbekiston Respublikasi – yangi suveren va mustaqil davlat paydo bo‘ldi.

O‘tgan tarixan qisqa vaqt davomida elimizning fidokorona mehnati va qat’iyati bilan milliy o‘zligimiz, qadimi tariximiz, boy madaniyatimiz, ezgu qadriyat va an‘analaramiz qayta tiklandi. Davlat va jamiyat hayotining tub asoslari o‘zgarib, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ldi. Qarorda keng ko‘lamli

islohotlarimizni izchil davom ettirish, barcha soha va tarmoqlar rivojini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, bugungi kunda yurtimizda millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaro erkin va farovon yashaydigan yangi jamiyat va davlat barpo etilayotganligi alohida qayd qilingan. Chindan ham bugungi kunda mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xususan, yangilangan Konstitutsiyamizning qabul qilinishi el-yurtimiz Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonloma qo‘llab-quvvatlab kelayotganini yana bir bor yaqqol tasdiqladi.

Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligini Yangi O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot darajasi, shonu shuhratiga mos holda munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash maqsadida, qator tadbirlar belgilandi. Jumladan, “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’nnaviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari dasturi tasdiqlandi.

Taqdimot

“Sharaf yo‘li” va “Sharofnomma”

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning “Sharaf yo‘li” romani hamda shoira Sayyora To‘ychievaning “Sharofnomma” nomli doston va esselar to‘plami taqdimoti bo‘lib o‘tdi.



Taqdimot yig‘inini olib borgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, ushbu yangi asarlar Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag‘ishlangan ma'rifiy loyihalarining uzviy bir qismi ekanini ta‘kidladi:

– Sharof Rashidov xalqimizning asl va suyukli farzandi bo‘lish bilan birga ijod ahliga, umuman odamlarga juda mehribon, e’tibori inson, buyuk qalb sohibi edi. Davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov yurtimizning ozodligi, to‘kinligi yo‘lida umrini baxshida etgan, qaltsiz zamонлардан, to‘fonлардан xalqimizni omon olib chiqqan edi. Ulug‘ ustoz Sharof Rashidovning buyuk shaxs sifatidagi siyosomi taniqli adib Abduqayum Yo‘ldoshevning “Sharaf yo‘li” romani hamda Sayyora To‘ychievaning “Sharofnomma” nomli doston, esselar to‘plamida hayotiy va ta’sirchan misollar yordamida ochib berilgan. Ushbu nashrlarda juda qimmatli va kerakli, jiddiy fakt va ma‘lumotlar keltirilganki, ular Sharof Rashidovning buyuk siyosini to‘laqonli ochib berishga xizmat qiladi, – deya xotirladi O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid.

Sevgi ko‘p narsani
va’da qilmasa ham,
sevib qolgan oshiq
ko‘p narsaga qodir
bo‘ladi.

Frank TIBBETS

Bugunning
chorasini ko‘rib,
ertaga ehtiyoji
qolmagan kishi
aqllidir.

Abu Rayhon
BERUNIY

Inson qanchalar
ajoyib? Agar u
chinakam inson
bo‘lsa.

MENANDR

Hayot bu qora va oq
chiziqlar zebrasi emas,
balki hamma narsa sizning
harakatingizga bog‘liq
bo‘lgan shaxmat taxtasi.

Andre MAUROIS

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

 Shu maqsadda, aholining keng qatlamlari o'rtasida Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan ma'nnaviy-ma'rifiy anjumanlar, "uch avlod uchrashuv" tadbirdi, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, gastronomik festivallar, sayillar, madaniyat va sport tadbirdi o'tkaziladi. Shuningdek, atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san'at arboblari, taniqli sportchilardan iborat targ'ibot guruhlari tashkil etilib, uchrashuv va targ'ibot tadbirdi amalga oshiriladi.

Joylarda Mustaqillik bayramini yurtdoshlarimizning talab va istaklari asosida, yangilangan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati "O'zbekiston-2030" strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar haqida mahallalar, ta'lif va mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuvlar o'tkaziladi. Ularda, "Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak uchun poydevor" degan hayotiy shiorning mohiyati o'chib beriladi. Qolaversa, ulug' bayram arafasida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'nnaviy, siyosiy hayotida ro'y bergan yangilanishlar, o'zgarishlar sarhisob qilinadi. Qo'liga kiritilgan yutuq, muvaffaqiyat omillari tahlil etiladi. Kelgusida qilinadigan ishlarning rejalarini belgilanadi.

Ma'lumki, hayotda, har qanday zamon va makonda, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy- ma'rifiy hamda boshqa sohalarda rivojlanish, taraqqiyot a'mollari bevosita ma'rifikat, ta'lif, ilm-fan tamadduni, yangi ilmiy ixtiolar, kashfiyotlar va bonyodkorliklar orqali yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, ma'riffsiz, ilm-fan va yutuqlarisiz dunyo tamaddunini ham, bashariyat kamolotini ham, hayot taraqqiyotini ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu jarayon yer yuzida hayot paydo bo'lib, insoniyat umrguzaronlik qila boshlagandan beri davom etib kelmoqda.

XI asrda yashab o'tgan ulug' mutaffakkir Yusuf Xos Hojib ilm-fanning insoniyat hayotidagi ulug'ligini e'tirof etib, shunday yozgan edi:

*Bilimni buyuk bil, aql-idrokni yo'i,
Ulug'dir ikkovin tuta bilgan qo'i.
Idrok qayda bo'lsa, ulug'lik shunda,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik unda.
Olimlar – haqiqat qaddin suyanchi,
Ilmu urfon karvoni, elning tayanchi.*

Darhaqiqat, qerda ilm-fan qadrlansa, bilimga, ilmiy tafakkurga yo'l o'chib berilsa, mamlakat yuksak taraqqiyotga erishadi. Xalq yaxshi hayot kechiradi, yurt obod bo'ladi. Ajdodlarimiz buni yaxshi bilganlar va ilm-ma'rifikatni doimo ulug'laganlar. E'tibor bering, IX-XII asrlarda yuzaga kelgan Sharq Renessansi – ilk Uyg'onish davrining asosida ham Markaziy Osiyolik, xususan, o'zbekistonlik allomalarining ma'rifikat, ilm-fan, bilim sohasidagi ulug' kashfiyotlari yotadi.

Ayni paytda, o'tgan 6-7 yil ichida mamlakatimizda ta'lif, ilm-fan sohalarini rivojlantirish uchun 50 dan ortiq huquqiy hujjatlar – qonunlar, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, dasturlar qabul qilindi. Asosiy qonunimiz – yangilangan Konstitutsiyada ta'lif tizimini, ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish uchun, o'qituvchilar maqomini, nufuzini oshirish uchun alohida moddalar kiritildi. Boshqacha aytganda, respublikamizda ushbu sohalarni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar yaratildi. Bu huquqiy asoslar hayotda qisqa vaqt ichida amalii natijalarini bera boshladi.

Ilm-fanni yuksaltirishda, undagi yangiliklarni, kashfiyotlarni amaliyotda qo'llashda, yangi texnologiyalarni yaratishda ta'lifning navbatdagi bosqichi – oliy ta'lifning o'ziga xos o'rni bor. Shuning uchun mamlakatimiz Prezidenti ta'lifning bu bosqichida ham ko'plab islohotlarni amalga oshirishda tashabbuskor bo'lmoxda. E'tibor bering, bir paytlar respublikamizda 40 dan oshiq oliy ta'lif muassasalari bo'lardi. Endi-chi? Yurtimizda oliy o'quv yurtlarining soni salkam 200 taga yetdi. Avvallari yoshlarimiz katta miqdorda pul sarflab xorijdagi oliy o'quv yurtlarida ta'lif olishga intilardi. Endilikda xorijdagi 30 dan ortiq nufuzli oliy o'quv yurtlari yurtimizda faoliyat olib bormoqdalar. Mamlakatimizning nafaqat yirik shaharlarida, balki olis hududlarida ham oliy o'quv yurtlari ochilib, yoshlarning ta'lif olishlari yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lif tizimida o'quv muassasalarining ko'payishi, xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikning kuchayishi mamlakatimizda ko'pdan beri yuzaga kelgan yana

bir muammoni hal qilish imkonini berdi. Ma'lumki, respublikamizda bundan 6-7 yil ilgari umumiylar ta'lif maktablarini bitiruvchilar soni 650-700 ming nafar yoshni tashkil qilardi. Ko'p yillar davomida ana shu bitiruvchi yoshlardan 60-70 ming nafari oliy o'quv yurtlarida o'qish imkoniga ega bo'lib keldi. Ya'ni, mamlakatimizda yoshlarni oliy ta'lif tizimiga qamrab olish darajasi 9-10 foizdan oshmadidi. Vaholanki, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda bu ko'satkich 60-70 foizni tashkil etardi. Shuning uchun davlatimiz rahbari oliy o'quv yurtlarini ham, ulardagi ta'lif o'rinnarini ham ko'paytirishga e'tibor qaratdi. Natijada yoshlarni oliy o'quv yurtlariga qamrab olish darajasi 2019-yilda 20 foizga yetgan bo'lsa, bu yil ular miqdorini 40 foizdan oshirish ko'zda tutilgan. Kelgusida yoshlarimizning 60-70 foizi oliy ma'lumot olishga erishishi rejalashtirilmoqda.

Oliy o'quv yurtlari faoliyati bilan bog'liq o'zgarishlar, yangilanishlar, islohotlar davom etmoqda. Ularga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik berilmoqda. E'tibor bering, agar 2019-yilda 10 ta oliy o'quv yurtiga akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 41 taga yetdi. Xo'sh, akademik va moliyaviy mustaqillik oliy o'quv yurtiga qanday afzalliklar beradi? Bu, avvalo, har bir oliy o'quv yurti uchun yoshlarni o'qishga qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi va olyighohning ilmiy potensialini, salohiyatini kuchaytiradi. Ta'lif sifatini yaxshilaydi. Chunki talabalar yaxshi ta'lif olib, yetuk kadr bo'lib yetishsalar, oliy o'quv yurtining nufuzi va maqomi yanada oshadi. Olyighohni tayyorlagan kadrga talab ko'payadi. Ilmiy ixtiolar, kashfiyotlarni hayotga tatbiq etish, shu orqali moliyaviy ahvolni yanada yaxshilash imkoniyatini yaxshilaydi. Akademik va moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy o'quv yurti xorijdagi xohlagan universitetlar, institutlar bilan ilmiy va boshqa yo'nalishlarda hamkorlik aloqalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Olyighohni amalii natija bermaydigan yoki kimgadir amalii unvon sifatida zarur bo'ladi. Olyighohni amalii unvon sifatida zarur bo'ladi. Olyighohni amalii unvon sifatida zarur bo'ladi.

Bu ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini hisoblanadi.

Joriy yilda mamlakatimizda ixcham va samarali davlat boshqaruvi tizimiga o'tilishi munosabati bilan avvalgi Maktabgacha ta'lif vazirligi bilan Xalq ta'limi vazirligi birlashtirilib "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi", Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan Innovatsiya vazirligi asosida "Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi" tashkil etildi. Bunday boshqaruvi tizimi sohalarni

o'zaro uyg'unlashtirish bilan birga, bu sohalarda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini ham beradi. Ularga sarflanadigan sarmoyalalar, mablag'lar umumlashtiriladi. Masalan, bu yil oliy o'quv yurtlari talabalari uchun imtiyoziy ta'lif kreditlari 2 barobarga ko'paytirilib, ular uchun 1,7 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, ilm-fan va innovatsiya sohalariga 1,8 trillion so'm sarflanishi belgilandi. Maktabgacha ta'lif va umumiy ta'lif uchun ajratiladigan mablag'lar ham ko'paytirildi.

Umuman olganda, ta'lif va ilm-fan sohasida 6-7 yil ichida amalga oshirilgan islohotlar natijasida jiddiy o'zgarishlar, yangilanishlar yuzaga keldi. Ko'plab muvaffaqiyatlar qo'liga kiritildi. Qisqa vaqt ichida maktabgacha ta'lif muassasalari, maktablar, oliy o'quv yurtlari soni bir necha barobarga ko'paydi. Ularda faoliyat yuritadigan murabbiylar, o'qituvchilar, olimlarning mehnat haqlari 2-3 barobardan 4-5 barobarga qadar oshdi. Endilikda asosiy e'tibor ta'lif-tarbiya, ilm-fan sohasida sifat masalasiga qaratilmoqda. Aynan joriy yilning sifatida ta'lif yili, deb atalishida ham ana shu ulug'vor maqsad mujassamlashgan.

Ha, shu kunlarda serquyosh yurtimiz aholisi eng ulug' va eng aziz bayramimiz Mustaqilligimizning o'ttiz ikki yilligi shukuhi bilan yashamoqda. O'tgan har bir yil istiqloq solnomasiga o'ziga xos tarixiy voqeasi, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda muhim o'zgarish, iqtisodiyotimizda yangi innovatsiyalar, xalqimiz turmush darajasini oshishiga qaratilgan ezgu tashabbuslar davri sifatida bitilmoqda.

Sohni yillarda o'zgarayotgan O'zbekistonni, Yangi O'zbekistonni dunyo yana bir bor kashf etmoqda. Boqiy qadriyatlarni tiklash, tarix silsilasida xalqimiz tomonidan avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy an'ana, asrlarini ortda qoldirib mag'rur qad ko'tarib turgan madaniy meroz durdonalari bo'lgan ko'hna obidalarni asrab-avaylash zamirida, bugun insonni o'zgartirish orqali jamiyatni o'zgartirishga harakat qilayotgan qudratli xalqqa aylandik.

*Aziz hamyurtlar, yoshlar!
O'zbekiston Respublikasi davlat
mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayrami muborak
bo'lsin! Eng ulug', eng aziz bayramimiz bilan
Istiqlolni oliy qadriyat deb biluvchi, xalqimiz
kelajagiga befarq bo'Imagan hamma-hamma
yurdoshlarimizni samimiyy muborakbod etamiz!
Mustaqilligmiz abadiy bo'lsin!*



HUQUQIY MADANIYATNING shaxs va davlat bilan uzviy bog'liqligi

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetini mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibot, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning buniyodkorlik salohiyati ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Davlat boshqaruvida qatnashgan barcha rahbarlar mamlakatimiz yuksalishi va rivoji uchun harakat qildilar, albatta, kerakli imkoniyatlar yaratilib berildi.

**Samiyev Baxtiyor NORBOBO o'g'li,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish" yo'naliishi 1-bosqich talabasi**

"Eng avvalo, o'zimizga shunday savol berishimiz kerak: har bir fuqaro, har bir inson, oila va jamoa boshlig'i hokimyatdan nimani kutyapti? Barcha zamonlarga va xalqlarga xos bo'lgan eng asosi, eng muhim, eng umumi maqsadni aniqlaydigan bo'lsak, shuni to'la asos bilan aytish mumkinki, davlat paydo bo'lgandan buyon, inson o'zining xavfsizligini himoya qilishni, shaxsiy huquqlari va erkinliklari ta'minlashini davlatdan kutadi, hokimyatdan najot izlaydi. Hokimyat shu tabiiy talablarga javob bera olmasa, ochig'ini aytganda, bunaqa hokimyat va davlat tashkiloti hech kimga kerak bo'lmaydi", – deb ta'kidlaydi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so'ng aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga ko'p jihatdan bog'liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni ragbatlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish va boshqa masalalar o'z aksini topgan. Biroq bugungi kunga kelib zamon o'zgarishi, fuqarolarning fikr yuritish darajasi o'zgarganligi sababli, ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvoryo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqiy ongini oshirish masalalari ham alohida tamoyil sifatida o'z aksini topdi. Harakatlar startegiyasining davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'l-jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi farmoni qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasining "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish", deb nomlangan ikkinchi yo'naliishi huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan. 2017-yil 7-sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 2018-yil 13-apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalar faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni, 2019-yil 9-yanvardag "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi

Prezident Farmoni va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko'rish mumkin.

Tez va shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda inson ongi uchun kurash tobora kuchayib borayotgan davrda jinoymatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish, diniy ekstremizm va

Biz qanchalik mukkammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi va huquqiy ongi, madaniyati yetarli bo'lmasa, kutilgan maqsadlarga erishish mushkul bo'ladi.

Sh.M.MIRZIYOYEV



terorizmga, uyushgan jinoymatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarini kuchaytirish kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Albatta, hozirgi vaqtida fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish, tom ma'noda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylandi. Fuqarolarda yuksak huquqiy tafakkur shakllanmas ekan, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqaveradi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va shu orgali qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o'sib kelayotgan yoshlar uchun ham qimmatlidir. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni qurishning zarur sharti, qonunlarga itoat qilishdir.

Huquqiy madaniyat – bu insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarini egallab olish darajasi, kishining davlat va jamiyat chiqargan qonunlarini bilish va ular asosida munosib hayot kechirish borasida orttirgan tajribasi, umumi huquqiy siyosatidir. Huquqiy madaniyat umumi madaniyatning ajralmas, uzviy bir qismi hisoblanadi. Yurtimizda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqiy

davlatning eng muhim belgilardan yana biri – qonun ustuvorligini ta'minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash mazkur islohotlarning o'zagini tashkil etadi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, mamlakatimiz aholisi va yoshlari ongida qonunlarga hurmat ruhini singdirish masalalari juda muhim. Inson o'zini huquqiy jihatdan yetuk, bilimli deb hisoblashi uchun birinchi navbatda unda jamiyatda o'rnatilgan huquq normalariga nisbatan hurmat ruhi shakllangan bo'lishi lozim. O'tgan yillar mobaynida o'tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamiri yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslarini izchillik bilan mustahkamlandi.

Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda madaniyati darajasiga bog'liq. Yuksak huquqiy



burchlarini bajarishi, ularni anglab olishi; 5. Huquqiy tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarning yo'lga qo'yilishi va uning ijrosini ta'minlanishi;

6. Kelajak yosh avlodga huquqiy tizimni ko'proq o'rgatish kabi omillar mavjud.

"Huquqiy madaniyat" tushunchasi "huquqiy ma'rifat" va "huquqiy savodxonlik" kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq. Bir narsaga e'tibor berishimiz kerakki, huquqiy ma'rifat nafaqat qonunlarning o'zini, balki ularni hayotga tatbiq qilish bilan bog'liq, qonun osti hujjatlarni bilishni ham talab etadi. Huquqiy savodxonlik va ma'rifat asosida insonning huquqiy ongi shakllanadi. Huquqiy ongi yuksak odam qonuniylik bilan qonunsizlikning farqini yaxshi anglaydi, o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan birga, o'z galarning huquq hamda erkinliklarini hurmat qilishni ham unutmaydi.

Qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Qonunning ustuvorligi huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'ian hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdar shaxs, hech bir kishi qonunga bo'yusunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir.

Huquqiy madaniyatli odam qonunlardan qo'rqqani uchun emas, balki ularni hurmat qilgani, qonunlar timsolida xalq xohish-irodasini ko'rgani uchun ham qonun asosida yashashni o'z hayotining mazmuni, deb biladi. Buni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun shuni bilishimiz kerakki, ya'ni sizning huquq va erkinliklaringiz xuddi sizdek boshqa bir kishining huquq va erkinliklari chegarasigacha davom etadi. O'sha kishining qonuniy huquq va erkinliklarini hurmat qilish sizning qonun oldidagi fuqarolik burchingiz va majburiyatizing hisoblanadi. Chunki huquqiy demokratik jamiyat va davlat o'z nomi bilan erkin jamiyat va davlatdir.

madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi omildir. Jamiyatda huquqiy madaniyat qaror topishi quydagi omillarga chambarchas bog'liq:

1. Davlat tomonidan xalq manfaatlarini ifodalovchi huquqiy siyosatning ishlab chiqilishi va amalga oshirilib, tatbiq qilinishi;

2. Mamlakatda yuridik huquqshunoslik fanlarining rivojlangan bo'lishi, hamma o'z huquq va erkinliklarini bilishi, unga rivoya qilishi;

3. Hammaning qonun oldida tengligi;

4. Huquqni amalga oshiruvchi davlat idoralari va mansabdar shaxslarning qonunlar doirasida o'z huquqi,

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, har qanday madaniyat yuksak ong va tafakkurga asoslangani singari huquqiy madaniyat odamlarda, avvalo, huquqiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni talab etmoqda. Huquqiy tafakkur va dunyoqarash esa konstitutsiya qonunlarini, umuman huquq ilmini o'rganish orqali shakllanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy bilim va madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Demak, huquqiy madaniyat inson hayotining mohiyatini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyat insonning jamiyat hayotida faol ishtirok etishga imkon beradigan, ma'naviy saviyasini ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir.

“SHARAF YO‘LI” va

“SHAROFNOMA”

odlarimiz bor
mlarimiz bor
qilsa arziyidigan
yotimiz va
ladi.
yat Mirziyoyev
ikasi Prezidenti



— Mazkur nashrlar taqdimoti Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotganida ham o‘ziga xos ramziy ma’no bor. Negaki, atoqli davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov yuragida, o‘y-xayolida, amaliy harakatlari va tashabbuslarida mamlakatni, xalqni ozod, obod, to‘kin va farovon ko‘rish ishtiyogi bilan yashagan inson edi. Dunyoga taniqli shaxslar haqida asar yozish juda qiyin va mas‘uliyati vazifadir. Shu ma’noda nasr muallifi Abduqayum Yo‘ldoshev g‘oyat katta mashaqqat bilan, faktlar asosida mazkur tarixiy romanni yaratishga yondashgan, — dedi taniqli jurnalist Mamatqul Hazratqulov.

Taqdimot tadbirida so‘zga chiqqan “Zarafshon” gazetasi bosh muharriri Farmon Toshev, “Ma’naviy hayot” jurnali bosh muharriri Eshqobil Shukur, jurnalistlar Shuhrat Jabborov, Muqaddas Abdusamatova va boshqalar atoqli jamoat va davlat arbobi Sharof Rashidovning xalqimiz, O‘zbekiston hayotida tutgan benihoya ulkan o‘rni va xizmatlari, odamlar og‘irini yengil qilish, zahmatlarni munosib yengib o‘tishdagi jasorati xususida batafsil so‘z yuritdilar.

— Millat qalbida umrbod yashab qolish va o‘z ibrat maktabini yaratish har kimga ham nasib etavermaydi, — dedi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyati bo‘limi rahbari Mahmud Toir. — Bir inson haqida ikki ijodkorning


**Maftuna SAITQULOVA,
O‘zDSMI “Dramaturgiya” yo‘nalishi
b‘oyicha sirtqi 5-bosqich talabasi**

asari taqdimoti ilk marta o‘tkazilmoqda. Abduqayum Yo‘ldoshevning “Sharaf yo‘li” romanı Erkin A‘zamdek talabchan adib muharrirligida nashr etilgani ahamiyatlidir. Qo‘liga qalam tutgan ijodkor borki, Sharof Rashidov haqida yozishni istaydi. Bugun taqdimoti bo‘lib o‘tayotgan kitoblar Sharof Rashidovning tabarruk siyosini teranroq o‘chib berishga xizmat qiladi.

Hayot davom etmoqda. Kimnidir yod etib, uning umr yo‘liga nigoh tashlasak, avvalo, o‘zimizga, o‘zligimizga nazar solgan bo‘lamiz. Sharof Rashidov haqidagi ushbu kitoblarga jamlangan xotiralar esa har bir o‘zbek uchun o‘zligiga, tarixi va buguniga nazar solish, o‘z hayotini tadqiq etishga imkon beradi. Sharof Rashidov xalqimiz qalbida, avlodlar xotirasida, millat va mamlakat tarixida yorqin siymo, o‘z umrini xalqiga baxsh etgan buyuk imkon sifatida qoladi.

Shoir aytmoqchi:
*Xalqim, niyatlari ulug‘ donishim,
Niyatga munosib iqboling bekam.
O‘zbek deganlari katta xalq erur,
Shu bois ulug‘dir farzandlar ham!*

Do‘stim – kitob



Kitob, seni o‘qigan kishi dunyoga boshqacha ko‘z bilan qaray boshlaydi. Sen bilan oshno bo‘lgan kishi yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata oladi. Kitob, sen misli bir tuganmas xazinasan. Seni o‘qigan sari fikrlash qobiliyatim, aqilm charxlanib bormoqda. Senga muhabbatim ortmoqda. Sen bilan vaqtlarim maroqli o‘tmoqda. Seni o‘qigan sari jonli ekranlarda qahramonlar jonlanmoqda. Seni o‘qib, o‘zimni misoli kinoteatrda his qilaman. Sendagi voqealar ko‘z o‘ngimda jonlana boshlaydi. Seni o‘qiganim sari nimalarnidur yozgim keladi. Ilhom kelib, shavqim ortadi. Bobolarimiz: “Beshikdan to qabrigacha bilim izla”, deganlari bejiz emas. Ilm insonni yorug‘likka olib chiqadi. Axir jadid bobolarimiz ham aholini savodxon qilish orqali mustaqillikka erishish mumkinligini ta‘kidlagan edilar-ku.



**Sabrina
IBRAGIMOVA,
“Madaniyat va san‘at
muassasalarini tashkil
etish va boshqarish”
ta‘lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi**

She‘r nima uchun o‘qiladi? Siyqasi chiqib, javob talab qilmaydigan savol bu, bilaman. Ammo shunday bo‘lsa ham yana shu savolni beraman, o‘zimga o‘zim. Javobimni siz bilan o‘rtoqlashaman. Kamida siz emas, men nima uchun she‘r o‘qiyman? Nima uchun she‘r o‘qishim kerak? Shu savolga javob topishga harakat qilaman. Shu kunga qadar nega o‘qiganligimni so‘roqlamasdan turib shuncha she‘r o‘qidimmi?

She‘r o‘qiganda...

**Ma‘rufjon YO‘LDOSHEV,
filologiya fanlari doktori, professor**

Har kun, bir marta bo‘lsin, bir shoiring shе‘r kitobini qo‘limga olaman. Bitta bo‘lsa ham she‘rini o‘qiyman. Bu mutolaa menga ikki xil kayfiyat beradi. Birinchisi, nafrat, ikkinchisi hayrat. Ochig‘i, ikkinchisi kamroq kuzatiladi. Nega nafrat? She‘r tozalashi kerak emasmi, negativ tuyg‘ularni. Aslida shunday, nazariyada yozilgani shu. Amaliyotda ba’zan kitobni otib yuborishga majbur qiladigan darajada g‘azablantiradi, she‘r hazratlari!

Men she‘r o‘qiganda ko‘proq shoiring metaforasiga e’tibor beraman. Shunga ko‘ra baho beraman: she‘rga ham, shoirga ham. Metaforaning eski yoki yangiligi, poetik ko‘lami va imkonlari, lisoniy va mantiqiy jihatlari bilan qiziqaman. Ba’zi shoirlar shu darajada jo‘n va siyqasiz metaforalarni qo’llashadi, buni she‘r sifatida taqdim qilishdan ham uyalishmaganiga hayron qolaman. Tarvuzni yorsang, ichi qizil chiqishini bilish uchun she‘r o‘qishga ehtiyoj sezmayman men. Shunchaki bir gapning ziynatlangan tovoqda taqdim qilinishiga hayron qolmayman, aslo. Bahorda gullagan na’matak, o‘rik va hokazo tabiatda meni hayratga solishi aniq, ammo uning qofiyaga solingen shakli oldida mutlaqo hissiz qolishim mumkin. Axir, o‘zi doim ko‘radigan, ko‘rishi mumkin bo‘lgan va huzurlanib tomosha qilishi mumkin bo‘lgan narsani o‘qish uchungina she‘r o‘qimasa kerak inson. Buning uchungina shoiring kitobini sotib olmasa kerak...

Men she‘rdan din ham, tarix ham, grammatika ham qidirmayman. Chunki o‘quv qo‘llanmasi emasligini bilish uchun universitetni tamomlamadim. She‘r bilim bermasin, buni istamayman zotan. Ammo ruhiy chanqog‘imni qondirsin. Ma’nан suhbatdoshim bo‘lsin. Darddoshim, dildoshim bo‘lsin. Imkonsiz narsani so‘radim chog‘i?..

To‘g‘ri, shoirlarning egosi kuchli bo‘ladi, xuddi o‘zlariga o‘xshab she‘rlari ham sizni tinglash o‘rniga aql o‘rgatishga moyil bo‘ladi. Darddosh bo‘lish o‘rniga hasratini ag‘daradi ustingizga. Lekin hammasi ham emas, albatta. Shu o‘rinda bir iqtibos. Lev Kassil bir kitobida shunday bir faktni keltiradi. Vladimir Mayakovskiyya munaqqidlar dashnom qilibdi: “Sizning she‘rlaringiz odamni to‘qlinlantirmaydi, ulardag‘i tuyg‘u odamga yuqmaydi”. Shunda shoir quyidagicha javob beribdi: “Mening she‘rlarim dengiz ham emas, pechka ham emas, vabo ham emas!” Kim haqli?! Bunga siz qaror bering.

Men she‘rdan metafora qidirishimni aytdim. Chunki shoiring tasavvuri va tasviri, xayoli va ifodasi, tushi va ta‘biri oddiy odamdan farqli ekanligiga ishonaman. Haqiqiy shoiring xamirturushi o‘zgacha ekanligiga chindan ishonaman. Chunki ularning, masalan, bir toshga qarab ko‘rgani bilan mening toshga qarab anglaganim o‘rtasida farsah-farsah masofa bor. She‘r o‘qib, toshning tosh emasligini farqlash, uning ham qalbi borligini anglash ham huzurli ham hayratli. Toshlarning faqatgina shafqat qarshisida himoyasiz ekanliklarini hech qaysi o‘quv qo‘llanmasidan topolmaysiz, axir. Toshga gul tutish mumkinligini xayol qilishni hech qaysi din kitobi o‘rgatmaydi. Gulning faqat oq, qizil, sariq, arg‘uvon emas, shafqat rangida bo‘lishi mumkinligini tasavvur qilish naqadar totli.

Shafqatni rangli tasavvur qilish naqadar huzurli. Buni she‘rdan boshqa qaysi kitobda yozish mumkin? Toshning mehr bilan qo‘l uzatishi, hatto, yig‘lashi mumkinligi xayolingizga keladimi, she‘rsiz? Gapning indallosi, she‘r o‘qigan inson, kamida, toshlarning tosh emasligini farqlashi lozim:

*Odam taroshlamoq bo‘lsangiz toshdan,
toshni silang,
imkon qadar ko‘rgazing mehr.*

*Toshlar faqat shafqat oldida
himoyasizdir.
Toshga gullar tuting,
nimpushti gullar –
shafqat rangidagi gullarni tuting.*

*Tosh, albatta, cho‘zar qo‘lini,
gulingizni olar,
qo‘lingizni o‘par,
yig‘lab yuboradi, ishoning, shu tosh.*

(Faxriyorning “Ayolg‘u” kitobidan)



Doniyor MIRZO,
“Teatr san’ati” mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Jinni qildi

Uch-to ‘rt kilo shaftolidan shinni qildi,
G’ilmindini pishirolmay g’inni qildi,
Suvga eltid, suv bermasdan soy bo ‘yida,
Jinni qildi, meni jonon, jinni qildi.

Sharsharaning bo ‘ylarida kuldirdi u,
Shayton unga malayligin bildirdi u,
Soqolimdan torta-torta o ‘ldirdi u,
Jinni qildi, meni jonon, jinni qildi.

Jingalak soch jiyaniday jimjit edi,
Ukasiyam kattagina jigit edi,
Nozikkina barmog ‘ida chimchib, dedi:
Jinni qildi, meni jonon, jinni qildi.

Internetdan kunda menga rasm tashlab,
Qilich chopmas qilg ‘iliqni o ‘zi boshlab,
O ‘rta qo ‘lda maynasini asta qashlab,
Jinni qildi, meni jonon, jinni qildi.

Doniyor Mirzo ota-buvam shoh deydilar,
Beli og ‘rib ishq dardida oh deydilar,
Muhabbatning nayranglari choh deydilar,
Jinni qildi, meni jonon, jinni qildi.



Amriddin SHOMURODOV,
“Madaniyat va san’at
menejmenti” ta’lim yo‘nalishi
sirtqi 2-bosqich talabasi



Nozima ULUG‘OVA,
O‘zDSMI Nukus filiali
“Sahna va ekran san’ati”
dramaturgiyasi 3-bosqich talabasi

Oxirgi parta

Bir kun tinglab tursam o ‘rtog ‘im so ‘zin,
Oxirgi partada sehr bor emish.
Kimki borib joylashsa bilmaskan o ‘zin,
Ko ‘p gapirar, qandaydir g ‘alat kularnish.

Ishonmasdan, ajablanib do ‘stim so ‘ziga,
Bir kungina, joylashgandim parta so ‘ngiga.
Qarang, bu kun bo ‘ldim rosa tomosha,
Menga qarab kursdoshlarim: o ‘zgaribsiz, der.

Nega endi, nima uchun ushbu qarashlar?
Nima bo ‘pti, a ‘lochilar ortga joylashsa?
Boshlanarkan, sakson minut pichir-pichirlar,
Ustoz ish bilan bo ‘lib, erkinroq qo ‘ysa.

Chalg ‘ir ekan darslarga qilmay e ‘tibor,
Telefon deganlari yonida tursa.
SMSlar kelar, yo ‘qsa video bor,
Telegram va Tik Tok faolroq bo ‘lsa.

Qulqoqda quloqchin, tinglab bir qo ‘shiq,
Aytishni ham boplar, ovozda jo ‘shib.
Sinfga kirib, ustoz bo ‘lsa der:
O ‘rningizdan turing, marhamat qilib!

Bu qanday mash-masha, bu qanday qiliq?
Uyaling bu ishdan, takrorlamang hech!
Ko ‘zim yerda, hijolatdan yuzim ham issiq,
Foydasi yo ‘q afsuslarni, bo ‘ldi endi kech.

G ‘iybat uchun imkoniyat – oxirgi parta,
Yemak uchun imkoniyat – oxirgi parta.
Ko ‘p bo ‘lmasin mayli, hech bo ‘Imaganda,
Uxlash uchun imkoniyat – oxirgi parta.

Men esa qilmayin u joyga havas,
Hech kim ham u joyda qilmasisin rohat.
Birinchi partada – ustoz nafasida,
Bo ‘lmoqlikning o ‘zi oliy saodat!



Do ‘stlar

Do ‘stlar, bugun bizga ne bo ‘ldi?
Oqibatni unutdikmi yo?..
Haqiqatni ko ‘rmay qoldikmi?
Ko ‘zimizni qamashtirib dunyo!

Do ‘stlar, bugun bizga ne bo ‘ldi?
“Qalaysan”, deb hol so ‘rmaymiz.
Yuragimiz nafratga to ‘ldi,
Ertamizni hech o ‘ylamaymiz.

Do ‘stlar, bugun bizga ne bo ‘ldi?
Ahdlarimiz unutildimi yo?..
Ustimirizdan dushmanlar kului,
Ajratdimi bizni mol-dunyo?

Do ‘stlar, bugun bizga ne bo ‘ldi?
Hamma o ‘zi bilan ovora.
Qayda qoldi abadiy do ‘stlik?
Uzoqlashib ketdik tobora.



Nizomiddin ESHMURODOV,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Sog‘indingmi, yor?

Sen ham meni sog‘indingmi, ayt!?
Eslaysanmi, go ‘zal onlarni...
Qaylardasan?
Kel, yonimga qayt,
Sayr etaylik xiyobonlarni.

Sen ham meni sog‘indingmi, yor?
Nechun xabar bermaysan unda?!
Faqat sening xayollaringga,
Kirib borgum sezdirmay tunda...

Sen ham meni sog‘indingmi, yor?
Yana qancha bergaysan chidam?
Men borman, deb ovoz bersaydi,
Meni menday sevolgan odam.

Sen ham meni sog‘indingmi, yor?
Yolg ‘iz qolsam tushasan yodga.
Bu yurakka ko ‘ksim kelar tor,
Sabrim yetmas sensiz hayotga.

Sen ham meni sog‘indingmi, yor?
Axir, nega bermaysan sado?
Ikkimiz ham ayro yo ‘llarda,
Bir-biridan ayrilgan gado...

Sen ham meni sog‘indingmi, yor?
Qiyinmikan mensiz yashamoq?
Mendan olis ketding-u, meni
Qilolmading ko ‘nglingdan yiroq...

Sen ham meni sog‘indingmi, yor?
Yo ‘q, yengingni nam qilma yoshga.
Men yolvorib yashadim, axir,
Sen talpinib yasha quyoshga!

Do ‘stlar, bugun bizga ne bo ‘ldi?
Yig ‘ilishar edik oyda bir.
Ulg ‘ayibmiz, arosatdamiz...
Birimiz boy, birimiz faqir.

Do ‘stlar, bugun bizga ne bo ‘ldi?
Bugun sizni kelyapti ko ‘rgim.
Erta-indin paymonam to ‘lsa,
Tobutimni kim ko ‘tarar, kim?!
Do ‘stlar, bugun bizga ne bo ‘ldi?



– Salom, Zarina. Eshitdingmi yangiliklarni? –
Zulxumor hovliqchanicha Zarinalarnikiga kirib keldi.
– Salom, o'pkangni bos! Tinchlikmi?
– Nahotki bexabar bo'lsang?
– Tushuntirib gapir!
– Axir u ... haligi... uylanyapti ekan...
– Kim? Zor-ku, to'ya borar ekanmizda?
– ...
– Hoy qiz, tavba-a... Nega jimsan, kimning to'yi?
– Zari, rostdan bexabarsan shekilli-a? Jasur
uylanyapti shu hafta...
– N-nima!? Yana qaytar?
– Zarina, dugon... men ham bugun bildim. U iflos
seni aldab yurgan ekan-da, boshidan...
– Yo'q, bo'lishi mumkin emas!
– Bu hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin, azizam.
Oxirgi marta qachon gaplashganding?
– Menmi...ancha bo'ldi, arazlashgandik...

Zarina shunday dedi-yu, bo'g'ziga tiqilib kelayotgan
yig'ini arang yutarkan, ko'zyoshlarini ko'satmaslik
uchun chopib chiqib ketdi. Ancha yugurgach, birdan
to'xtab qoldi. Endi uyg'ongan go'dakdek atrofga
olazarak boqarkan, ko'zlaridagi hayrat va alam
qorishib, ko'zyoshlari seldek oqa boshladi. Yelkalari
silkinib-silkinib yig'ladi... Eshitanlari rost yoki
yolg'onligini angloolmay, xo'rliqi kelib yig'ladi...

Tasodifmi yoki taqdir hazilimi qiz kelgan joy, Jasur
bilan ilk bor tanishgan joy – anhor
bo'yi edi. Birzum jimjimador billurdek
mayda to'lqincharalarini itargudek bo'lib
oqayotgan suvga tikilib qoldi. O'sha
tanish o'rindiqa o'tirdi-yu, beixtiyor eski
xotiralar yodga tushdi.

Ana, maktabdan qaytayotib,
birtalay o'quvchilar kinoga tushishgan.
Kinoni ko'rib bo'lgach, anhor yoqalab
sinfoshlar chug'urlashib kelisharkan,
yigitlar yozning issig'iga chidolmay
cho'milamiz, deb qolishdi. Ja'far
ko'ylagining yoqasini bo'shatarkan:

– Bahrom, kel sinashamiz. Kim
birinchi huv anavi ko'priq tagigacha
yetib borarkan?
– Xo-o, suzishni bilasanmi o'zi? –
atay do'stining qitig'iga tegdi Bahrom.
– O'-o'v yigit, akang qarag'ay
suzsin-da, sen o'zi nega qaltirayapsan?

– Og'zingga qarab gapir, kim
qaltiradi? Qizlarni yonida cho'milamizmi
ahmoq?

– Voy, jinni bo'l manglar. Qani uuga
marsh-sh-sh, – dedi Zarina qovog'ini
uygancha.

– Vo ana, sinfboshimizning aytgani
qonun, – dedi, Bahrom.

– Seni o'g'il bola desam... – norozi
g'udrandi Ja'far

– Nima deding? – Bahrom
xezlangancha Ja'farning yoqasidan
tutdi. – Yana qaytar, o'g'il bola bo'l may
kimman?

– E-e, tort qo'lingni, mard bo'lsang
suvga tush!

– Ja'far esing joyidami, hozir shartmi
shu, ertaga ustozga aytib beramiz.
Boshqa safar alohida kelasizlar,
qani ketdik! – Umida shunday deya,
Bahromga yuzlandi.

– Xafa bo'lma, Bahrom. Uning gapiga
e'tibor berma, bilasanku qanaqaligini.

Qiz Bahromga ketdik, deya yengidan tortqiladi. Shu
payt Ja'farning chapaniligi tutib ketdi:

– Bahrom, qizlar sudrasa pildirab ketishingni qara.
Tohir-u Zuhra ekaninglarni bilmagan ekanman. Xa-
xa-xa!

Boshqa bolalar ham gurra kulib yubordi. Bu
paytda izzat-nafsiq ozor yetgan yigitcha tezlik bilan
ortiga burildi-da, Ja'farning jag'iga musht otdi. Bo'ldi
to'polon...

Bolalar qiy-chuv bilan ularni ajratishga urinarkan,
Zarina kattaroq odam yordam bermasa janjal
bosilmasligini sezdi. Yordamga chaqirish uchun odam
gavjum joyga otilarkan birinchi duch kelgan yigitga yol
boshladi:

– Akajon, iltimos, yordam bering, anavi yerda
sinfoshlarimiz mushtlashib ketdi!

Nafasi bo'g'ziga tiqilgan Zarina birzum tikilgan
yigit u ko'satgan tomonga shoshildi. Bolalardan 5-6
yosh katta, boz ustiga anchagina baquvvat bo'lgan yigit
birzumda to'dani ikkiga yorib qo'ydi. Bu yigitning ismi
Jasur edi. Zarina unga rahmat aytib, uyga ketishga

chog'langanda kimdir yigitning ismini
aytib chaqirib qoldi.

– Men buyoqdaman, kelaveringlar, –
dedi Jasur.
– O'rtoq, qayoqqa qochib ketding.
Ma, ol muzqaymog'ingri! I-ye, kim bu
farishtalar, – u o'rtog'iga ko'z qisib qo'ydi.
– Zarif, jim bo'l. O'rtoqlari
janjallahayotgan ekan, ajratib qo'ydim.
Morojniyi ularga ber!

Shu payt Ja'far shosha-pisha
yechindi-da, anhorga yaqinlashdi.
– Hoy qo'rroq, suzishni o'rgan, –
deb Bahromga tegishdi-da, anhoring
biroz to'lqinlanib oqayotgan joyiga kalla
tashladi. Uning gapidan so'ng, hamma
u tomonga o'girilgan edi. Yigitchaning
boshi yelkasigacha suvga botdi-yu,
bir soniya xuddi loyga sanchilgan
xodadek havoda tik turib qoldi. Keyin
"shalop" etib yonboshiga quladi. U suv
ostiga ko'milganda, suvning yuzasi
qirmizi rangga kirdi. Ko'pchilik hali nima
bo'lganini anglab ulgurmay, Jasur uning
ketidan o'zini suvga otdi. Tusmollab
suv ostiga sho'ng'idi-da, xushsiz tanani
topib, qirg'oqqa sudrab chiqa boshladi.



Zilolabonu XOLIQOVA,

"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish"
ta'lim yo'naliishi
3-bosqich talabasi



Qirg'oqdagilar voqeа qanday tus olganini anglagan,
shovqin-suron boshlangandi.

...Ular shu tarzda tanishgan edilar. Keyinchalik
Ja'far kasalxonadan sog'ayib chiqdi, ammo ancha
vaqtgacha yarimjon bo'lib yurgandi. Mana, shunga
ham uch yil bo'libdi. Avvaliga do'stona gaplashib
yurdilar, yarim yilcha vaqt o'tgach, yigit dil izhor qildi...

– Zara! – Jasur qizni shunday erkalardi.

– Labbay, Juju! – qiz ham antiqa laqab topganidan
zavqlanib qiqirladi.

– Tasavvur qil, ikkalamiz kelin-kuyovmiz. Shu
anhorda oppoq, kichik bir kemada suzib ketyabmiz-u,
birdan kema ikkiga bo'linib, cho'ka boshlaydi. Sen
u yog'ida, men esa bu yog'ida qolib ketsak, nima
qilarding?

– Tavba qildim deng, tuf-tuf! Istmangiz bormi,
halitdan sovuq niyat qilyabsizmi?

– E-e, tasavvur qil dedim-ku, shunchaki...

– Buni o'ylashning o'zi vahimaga solidi. Halitdan
oyoq-qo'limdan mador ketdi. "Titanik" bo'ldi buyog'i.

– Hoy, to'xtang. Anhorda kema nima qiladi?

– Obbo, Zara-a... soddasanda. Tasavvurga har

baloni sig'dirish mumkin. Xo'sh, aytaqol. Nima
qilarding?

– Siz yordamga kelmagach, cho'kib o'lardim
nazarimda. Ammo osonlikcha jon beradigan
ahmoq yo'q. Siz tomonqa suzib o'tishga
harakat qilardim. Siz-chi, nima qilardingiz?

– Albatta, men ham seni izlab topardim.
Titanikni ko'rgansan-ku, qizni qutqarib, o'zi
cho'kib ketadi bechora. O'shanda sen ham
shunaqa qilarmidning?

– Hech qachon! Men sizni qo'yib
yubormasdim. Cho'ksak birga cho'kamiz!

– Zara.

– Ha.

– Seni sevaman!

...Zarina xotiralari shu yerga kelganda,
sapchib o'rnidan turib ketdi. Jujuni kimdir
majbur qilgan bo'lishi mumkin-ku. U
osonlikcha voz kechishi mumkin emas.
Hammagini hal qilaman. Yo'qsa baxt kemamiz
ikkiga bo'linib, bizni har yoqqa otishi mumkin.
Balki unga yordamim kerakdir...

Zarina qizlik g'ururini ham yig'ishtirib, bir
soatga qolmay Jasurlarning mahallasiga kirib
bordi. Ko'chada o'ynab yurgan bolalardan
Jasurni chaqirib berishlarini so'radi. Oradan
bir choynak choy qaynagunchalik vaqt o'tib,
soch-soqoli o'sgan, ko'zlarini kirtaygan yigit yetib
keldi.

– Zarina! Kel, nima qilyabsan bu yerda?

– Shu gap rostmi? – Qiz uning
mulozamatiga ham e'tibor bermay, ko'zlariga
tikilgancha savol qotdi. Shundoq ham ko'ngli
cho'kib yurgan Jasur qizning qo'lidan shartta
tortib, panaroqqa yetaklab ketdi. Daraxt panasiga
o'tishgach shoshib gap boshladi.

– Zara, meni kechir. Shunaqa bo'lib qoldi, qo'limdan
hech narsa kelmayabdi. O'zim ham senga aytolmay
qiyinalib yurgandim. Men ahmoqni kechir...

Zarina bir siltanib uning qo'lidan chiqib oldi.

– Bo'lishi mumkinmas! Indamay boshqasiga
ulyanib ketaverarkansiz-da? Sizdan... sizdan
kutmagandim...

– Zara, hech bo'lmasa sen meni tushun... Buvim
og'rib qoldi. Shunda hammamizni yoniga chaqirib,
jiyanining qiziga meni uylantirishni aytdi. Buvimga
qancha tushuntirmay, eshitishniyam istamadi. Rozi
bo'lishimni kutib tuz ham tortmadi. Ota-onam ham
meni rozi qilishga urindi. Alamimdan bilganlaringni
qilinglar, deb ko'chaga chiqdim-u, ikki-uch kun
uyga kelmadim. Bu orada onam borib qiznikida non
sindirib keldi. Zara, bu gaplarni senga qanday aytishni
bilmayotgandim. Kimdir shirin tushimdan suv sepib
uyg'otgandek... Mana, to'ygayam bir hafta qoldi...

(Davomi kelgusi sonda)

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi islohotlar va ularning ahamiyati

Ma'lumki, mamlakatimiz yanada taraqqiy ettirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'naliishi "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb belgilangan. O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining g'oyat muhim yo'naliishi bo'lgan ijtimoiy sohadagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- aholi bandligi va real daromadlarini oshirish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'iqliqi saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;
- arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish;
- ta'lrim va fan sohasini rivojlantirish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Murojaatnomada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev O'zbekistoni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida to'xtalar ekan, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlar samarasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidladi.

Shu munosabat bilan 2019-yilda ijtimoiy sohani yanada rivojlantirishning quyidagi asosiy vazifalari belgilab berildi:

- aholi o'tasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish;
- pensiya va nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish;
- ilm-fan, zamonaviy va uzlusiz ta'lrim tizimini yanada takomillashtirish;
- tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko'lamenti kengaytirish;
- xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish;
- aholi turmush sharoitini yaxshilash, uni munosib turar joy bilan ta'minlash, xalq farovonligini oshirish;
- jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish;
- turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrler salohiyatini oshirish;
- milliy g'oyani rivojlantirish.

Keng qamrovli ijtimoiy rivojlanish sohalari tizimida yoshlarga zamonaviy ta'lrim-tarbiya berish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasi naqadar o'tkirligi va dolzarbli bilan alohida ahamiyatga ega. Zero tarixdan ma'lumki, har bir davrda aynan ma'rifat jamiyat farovonligiga va mamlakat taraqqiyotiga turki bergan. Shu sababli, endilikda dono xalqimizning "Beshikdan to qabrgacha ilm izla", degan naqlini amaliy hayot faoliyatimizga ko'chirish, mamlakatimizda ta'limga uzlusizligi prinsipini amalda ro'yobga chiqarish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

So'nggi ikki yilda ta'lim tizimini zamonaviy demokratik davlatlar darajasiga olib chiqish, yoshlarning taraqqiyotning yetakchi kuchi sifatida jamiyatimizdagil o'rnini yanada oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish ijtimoiy sohadagi islohotlarning muhim yo'naliishi aylandi. Xususan, 2017–2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning shaffof mexanizmlari joriy etildi va kvotalar jiddiy ravishda oshirildi. Oliy ta'lim tizimida yangi, zamonaviy ta'lim muassasalari, jumladan, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagil oliy ta'lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlarning filiallari 7 taga yetdi. Oliy ta'lim muassasalarida sirtqi va kechki bo'limlar ochildi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko'zda tutmoqdamiz. Ya'ni O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrler, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart". Prezident Murojaatnomasida ta'lrim-tarbiya sohasini bevosita inson kamolotiga yanada xizmat qilishini ta'minlash yo'lidi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 34 foizdan 2019-yilda 44 foizga yetkazish, zamonaviy umumiy o'rta ta'lim tizimini tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida xususiy maktablar va bog'chalar tashkil etish, oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, so'nggi ikki yilda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9-10 foizdan 15 foizgacha oshirishga erishildi. Shu munosabat bilan Prezident Murojaatnomasida 2019-yilda mamlakatimizda bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazish va kelgusi yillarda oshirib borish vazifasi qo'yildi. Zotan oliy ma'lumotli, yuksak malakaga ega yoshlar soni ortishi jamiyat rivojlanish sur'atlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining dasturi ma'rurasida oliy ta'lim sohasining rivojlanishiga turki beruvchi quyidagi prinsipial yangi g'oya va tashabbuslar ilgari surildi:

- oliy o'quv yurtlari hamda nodavlat ta'lim maskanlari salohiyatini oshirish orqali ular o'tasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha raqobat muhitini kuchaytirish;
- yoshlarga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujat topshirish imkoniyatini berish;
- oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish;
- bakalavriat yo'naliishida tahsil olayotgan talabalarga xorida o'qishni davom ettirish imkoniyatlarini yanada kengaytish.

Murojaatnomada mamlakatimiz aholisining yarmidan ortig'i tashkil etadigan yoshlar bilan ishslash masalasi eng asosiy vazifalar qatorida qayd etildi. Bu bejiz emas.

Ta'kidlash joizki, taraqqiyot g'oyasi va istiqbollarini belgilab olmagan, ma'naviy asoslardan mahrum bo'lgan, asosisi, o'zining yosh fuqarolari ko'ngliga yo'l topa olmagan davlat va jamiyat farovon istiqbolni tasavvur qilishi qiyin. Davlatning yoshlarga bo'lgan munosabati jamiyat taraqqiyoti darajasi, uning ochiqligi, oldinga intilayotganligining ko'rsatkichlaridan biridir.

Shuning uchun davlatning jamiyatni birlashtirish va fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatida yoshlar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan yoshlar islohotlar chuqurlashayotgan davrda turli to'siqlarni yengib o'tishga qodir, mamlakatning yuksalish sari odimlariga kuch bag'ishlay oladigan aholi qatlamidir.

Aynan yoshlar fuqarolik jamiyatining eng faol qismidir, masalan yoshlar turli sohalarda innovatsion loyihiilar va texnologiyalarni joriy qilishga ko'proq moslashgan bo'ladi, ular jamiyatga yangi g'oyalalar va bilimlarni tashiydi hamda ularda o'z hayotini qurishga intilish kuchli bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, O'zbekiston yoshlari bugungi va ertangi kun egalari sifatida mamlakatimizda farovon hayot asoslarini barpo etishda bosh strategik resurs hisoblanadi. Mamlakatimizning demokratik yangilanishlar yo'lidan odimlashi va taraqqiyot sur'atlari ko'p jihatdan yoshlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi holati va faolligiga bog'liq bo'ladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga qulog solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu boroda uyushmagan yoshlar bilan ishslashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur".

2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ushbu sohaning asosiy yo'naliishlari bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni aniq belgilab beradi. Qonunda belgilab berilishicha, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati "yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'naliishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishni" nazarda tutadi. Bu jarayonlarda mamlakatimiz yoshlarini bunnyodkor g'oyalari atrofida birlashtirgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi muhim o'ranga ega bo'lmoxda.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi jismonan sog'lom, ma'nан yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko'maklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan ittifoq tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan, O'zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir. Ittifoqning asosiy maqsadi yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O'zbekistoni jahoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash, yigit-qizlarning ma'naviy va kasbiy savyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi Farmoni bilan tasdiqlangan "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi mamlakatimiz yoshlarining bor salohiyatini ro'yobga chiqarish, jamiyatimizga samarali ijtimoiyashuvini ta'minlash yo'lida navbatdagi qadam bo'ldi. Davlat dasturi yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplar, g'oyalari va loyihiilarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan.

Davlat dasturidagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'arma mablag'laridan quyidagilarni amalga oshirish uchun foydalananadi:

- yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplar, g'oyalari va loyihiilarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orgali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berish;



Saidjon UZOQOV,

"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
mutaxassisligi magistranti

- Davlat dasturi doirasida olinadigan kreditlar bo'yicha kredit hajmining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kafilliklar berish;

- Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik loyihiilarida ular qiyamatining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda ishtiroy etish, keyinchalik jamg'arma ulushini 5 yil davomida realizatsiya qilish;

- tegishli ko'nikmalarga ega, band bo'lmagan yoshlar yashaydigan uy xo'jaliklari uchun 20 tagacha parranda va quyon bolasi, 5 ta mayda va 2 ta yirik qoramol sobib olish, ularning qiyamatining kelishilgan muddatlarda qaytargan holda ularni boqish va keyinchalik realizatsiya qilishda ko'maklashish;

- yoshlarning qayta tayyorlanishi va malaka oshirishini tashkil etish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, shuningdek, ularga biznes yuritish ko'nikmalarini singdirish.

Davlat dasturi doirasida 2018-yil 1-iyuldan hududlarda davlat-xususiy sheriklik shartlarida "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazlari, "Yoshlar mehnat guzari" komplekslari qurilishi boshlandi. Ma'lumot uchun "Yoshlar mehnat guzari" majmuasi – savdo-maishiy va kichik ishlab chiqarish maydonlarini tashkil etish uchun mehnat kuchi haddan ziyyod bo'lgan tumanlarda barpo etilgan binolar majmuasi. "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi – yosh tadbirkorlarga imtiyozli shartlarda binolar, ofis texnikasi va sarflash materiallarni ijara berish, ularni internet bilan ta'minlash, shuningdek, yoshlarning biznes tashabbuslari, staraplari, g'oyalari va loyihiilarini amalga oshirishga boshqacha ko'mak berish, jumladan, biznes rejalar ishlab chiqish, maslahat, yuridik, buxgalteriya va boshqa xizmat turlarini ko'rsatish, forumlar, master-klasslar va seminarlar tashkil etish uchun ixtisoslashgan markaz.

Globallashuv sharoitida jamiyatimiz taraqqiyotiga nisbatan yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda noan'naviy tahidilar yuzaga kelmoqdaki, hozirgi davrda milliy ma'naviyat, milliy g'oya targ'ibotini zamonalmasi talablari darajasida yanada takomillashtirishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Bu jarayonda yoshlar masalasi mamlakatimizda bugun va kelajak bog'liqligini ta'minlovchi, milliy o'ziga xoslikni saqlab qoluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoxda. Prezidentimiz tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida yangi madaniyat va istirohat bog'larini tashkil etish, ularni yosh avlod orasida sog'lom turmush targ'ibotiga hamda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan zamonaliv yoshlar maskanlariga aylantirish taklifi ilgari surildi. Yurtimizda milliy g'oyasiz, milliy o'zlikni anglamasdan turib, vatanparvarliklarsiz hech qanday islohotlarni amalga oshirish mumkin emasligi ta'kidlandi.

Turkistonlik yoshlar 1909-yildan boshlab, Turkiyada turli jamiyatlar tuza boshlaydilar. Bular "Buxoro tamimi maorif jamiyati" (1909–1913), "Turkistonlilar uyushmasi" (1922), "Turkiston tur yoshlar ittifoqi" (1927–1945), "Turkiston talabalar ittifoqi" (1949), "Turkiston xalqi madaniyati va ijtimoiy yordami uyushmasi" (1954) va bu jamiyatlar, Mustafa Kamol boshchiligidagi Turkiya hukumati va undan keyingi davrda hamisha qo'llab-quvvatlangan.

Turkistonlik yoshlarning Turkiyada tashkil etgan jamiyatları

Erkin matbuot yaratish, ilmiy markazlar ochish, xohlagan sohada ishlash uchun baholi qudrat imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, Mustafa Kamol Otaturkning insonparvarligi va g'amxo'rliq tufayli ko'plab o'zbek ziyoilari o'z turmush tarzini tiklab, turk ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgani diqqatga sazovordir. Sovet hukumatining ziyoilarga tazyiqlari natijasida Turkiyada tahsil olib, qolib, u yerdan qochib ketgancha tajdiri haligacha to'liq o'rganilmagan va ularni tadqiq qilish ikki tomonlama ilmiy hamkorlikni taqozo etadi.

Turkiyadagi davlat arxivlarida ishlash va o'sha davrda chop

etilgan gazeta va jurnallarni o'rganish natijasida turli sabablarga ko'ra u yerda qolgan talabalarimiz va muhojirlarimiz haqida yangi ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Qolaversa, kecha-yu kunduz Turkiyada yashayotgan sobiq talabalarimiz va muhojirlarimizning farzandlari ham bu orzuga erishishish istagida ekanligi ham haqiqatdir.

O'zDSMI 2-bosqich
"Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi magistranti
Pirmuhammad
XOLMAXMATOV

Manba: "O'zbek muhojirlar tarixi"
asari. Muallif: Shodmon Hayitov

MEN ANGLAGAN HAYOT

Hayot turfa g'aroyibotlarga boy. Uning har lahzasi rangin tuyg'ularga limmo-lim. Faqatgina bu olamni rangin bo'yoqlar jilosi sifatida ko'rish har kimning o'ziga bog'liq. Xo'sh, men anglagan hayot qanday? Men nega aynan shu hayotda yashayapman?

Darhaqiqat, inson qayerda tug'ilishini, qanday kishilarning farzandi bo'lishini tanlay olmaydi. Biroq tug'ilgach, qay tarzda yashash kerakligini, qanday inson bo'lishini o'zi hal etadi. Hayot oppoq daftar misoli. Uning har sahifasini go'zal amallar bilan bezamoq uchun harakat qilmoq joiz. Donishmandlardan biri bejiz ta'kidlamagan: "Qanday tug'ilganingiz muhim emas, qanday o'lishingizni o'ylab ko'ring".

Ha, inson har kunini, yo'q, yo'q, har bir soniyasini oxirgi daqiqalari deb bilsa, menimcha, umr daftari faqat yaxshiliklar, mehrli so'zlar bilan to'ladi. Ming afsuslar bo'lsinki, biz doim ham buni anglab yetmaymiz. Kitoblardagi chiroli satrlarni o'qiyimiz, ammo ularga amal qilmaymiz. Vaqtimizni bekorchi narsalarga sarf etayotganimizni bilamiz, lekin bu "soyalar"dan qutila olmaymiz, hatto, harakat ham qilmaymiz. Eng yomon tomoni shuki: "hali vaqtim bor, imoniyatim ko'p", deya oltinga teng daqiqalarimizni yelga sovuramiz. Bir narsani yoddan chiqarmaylikki, "keyin" degan so'z "hech qachon" degan so'zga teng. O'zingiz tanlang: "bugun" yoki "hech qachon". O'tgan lahzalarni hech bir boylikka alishib bo'lmaydi.



Iroda BAHRONOVA,
Navoiy davlat pedagogika
instituti 2-bosqich
talabasi

Shu lahzada P.Koelo aytgan bir fikr xayolimga keldi: "Yoshlik chog'ingda kuch-quvvating ham, vaqting ham yetarli bo'ladi. Keksalikda esa vaqting ko'p bo'ladi, biroq kuch-quvvat seni tark etgan bo'ladi".

Xulosa o'rnda aytish joizki, men anglagan bu hayot dangasalarni, "hali vaqtim ko'p-ku", qabilida ish tutadiganlarni yoqtirmaydi. Shunday ekan, kechagi kuningdan saboq ol, bugun yasha, ertangi kuning uchun chiroli rejalar tuz va unga intil. Shundagina boshqalarning hayotiga havas qilib yashamaysan, o'zgalar sening hayotining ibrat olib yashaydi.

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDSOSHEV

Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAYEV
Hamdan ISMOILOV

Mas'ul kotib:

Ozoda SHOBİLOLOVA

Muharrirlar:

Iroda BERDIYEVA
Saida ERGASHEVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.

(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz


O'chhami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nusxasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda.
Chop etishga 31.08.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxtatga olingan.

Gazeta "Tahririyat va nashriyot bo'limi"
kompyuter markazida tayyorlandi.

Ko'rgazma

FOTOGRAFIYA MAK TABI



Toshkent Fotosuratlar uyida maktab-studiya bitiruvchilarining an'anaviy hisobot ko'rgazmasi tashkil etildi.

Hasan ABDUNAZAROV

Ekspozitsiyada 150 ga yaqin fotosurat namoyish etildi. Ularda o'n uch nafar bitiruvchi muallifning turli ranglardagi: ko'cha fotosurati, badiiy portret, ijtimoiy fotografiya, landshaft, natyurmort, abstraksiya, reportaj kabi janrlarda olgan fotosuratlar o'rinni o'ldi.

Bitiruvchilarining ishlaridan tashqari fotografiya maktabi o'quv jarayonidagi eksperimental yangilik sifatida installyatsiyalar bilan birga ikkita fotoloyiha ham taqdim etilgan.

AN'ANAVIY YAPON RO'MOLI




O'zbekiston Badiiy akademiyasining Ikuo Hirayama Xalqaro madaniyat karvonsaroyida "Furoshiki" an'anaviy yapon ro'moli ko'rgazmasi ochildi. Bu nom qadimda sochiq va kiyimlar o'ralgan, jamoat hammomlarida ishlataligan matodan kelib chiqqan. "Furoshiki"ni so'zmaso'z tarjima qilganda, "Hammom gilami" degan ma'noni bildiradi. U har qanday shakl va o'lchamdagagi narsalarni o'rash, tashish uchun ishlataladigan to'rt burchak matodir. Hammom to'shagi ko'p funksiyali sumkaga aylangan. Qalin matolar o'rnni yupqaroq va bardoshli matolar egallagan. Asta-sekin furoshiki paxta matolaridan tayyorlana boshlangan. Bugungi kunda furashiki paxta, ipak va aralash boshqa matolardan tayyorlanmoqda. U 40-80 sm hajmga yoki biroz farqli hajmga ega bo'lishi mumkin.

KO'RGAZMADA TABIAT MANZARALARI

Toshkent Fotosuratlar uyida O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Irina Shurning shaxsiy fotoko'rgazmasi ochildi. Ekspozitsiyada muallifning so'nggi yillarda o'lgan 60 ga yaqin suratlarda – tabiat manzaralari, shahar landshaftlari, badiiy madaniyati va dizayner obyektlari o'rinni o'ldi.

Ularning geografiyasi keng bo'lib, fotosuratlar orasida Germaniya, Portugaliya, Shvetsiya,



Fransiya, Shvetsariya, Italiyaning manzaralari va landshaftlari bor. Unda O'zbekistondagi "Chorvoq suv ombori", "Zomin", "Nanay" va boshqa hududlarning tabiat manzaralari muxislarni befarq qoldirmaydi.

Muallif "Mehnat veterani" medali, "Mehnat shuhrati" ordeni, "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.